

“YOSH MUTAXASSIS” TUSHUNCHASINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Azimova Firuza Kamolovna -Buxoro
davlat texnika unversteti o'qituvchisi .200100,Buxoro
sh.Q.Murtazoev ko'chasi15-uy.
E-mail:firuaazimova1993@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada “yosh mutaxassis” tushunchasining mohiyati, alohida xususiyatlari, bu borada ilmiy jamoatchilik va siyosiy doiralarda olib borilgan faoliyat to'g'risida fikr yuritiladi hamda mazkur masalada taklif kiritiladi.

Tayanch so'zlar: yosh mutaxassis, yetuk kadrlar, madaniyat, mutaxassis, Federal qonun, yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlar, uzluksiz ta'lim.

ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОНЯТИЯ «МОЛОДОЙ СПЕЦИАЛИСТ»

Азимова Феруза Камоловна
независимый исследователь
Бухарский государственный технический
университет
Бухара, Узбекистан
firuaazimova1993@gmail.com

Аннотация

В статье рассматривается сущность понятия «молодой специалист», его специфические черты, а также деятельность, проводимая в этом направлении в научной среде и политических кругах. Одновременно вносятся предложения по данному вопросу.

Ключевые слова: молодой специалист, зрелые кадры, культура, специалист, Федеральный закон, Государственная политика в отношении молодежи, молодежь, непрерывное образование.

Hozirgi globallashuv davrida insoniyat oldiga turli qiziqarli muammolar va ularning yechimlari taklif etmoqda. Bu esa tezkor progressiv taraqqiyotni boshdan kechirayotgan barcha jamiyatlar va davlatlarni tinimsiz izlanish va harakatda bo'lishga chorlayotgani ayni haqiqat. Bu borada inson omili eng muhim masala, taraqqiyotning asosiy lokomativi sifatida ko'proq tadqiqotlarga muhtoj. Inson doimiy rivojlanib borishi va bilimlarga ega bo'lishi uni jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi eng muhim kuchga aylantirgan.

Bugun jamiyat rivoji yo'lida mutaxassislar, xususan, yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash katta yutuqlar va faoliyatdagi munosib qulayliklarga olib

kelishi mumkin. Bu o'rinda sifatli mutaxassislar tayyorlashga har zamonda ehtiyoj mavjud bo'lib kelgan. Shu nuqtai nazardan hozirda falsafa fanida ham yosh mutahassislar tayyorlash va ularning mehnat madaniyatini tadqiq etishda turli qarashlar mavjud. Shunday ekan, bu borada tadqiqot ishlari bilan tanishib, tahlil qilib chiqish foydadan holi bo'lmaydi.

Avvalo, mutaxassis tushunchasining falsafiy tahliliga e'tibor qaratsak, u juda qiziqarli va murakkab mavzudur. Uning falsafiy aspektlari insonning bilim, qobiliyat, tayyorgarlik va ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liq holatlarini qamrab oladi. Mutaxassis kim degan savolga u avvalo malakali ta'lim olgan, jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qila oladigan, bilimli, malaka va ko'nikmalarga ega insonni tasavvur qilinadi. Yaxshi mutaxassis bo'lish uchun avvalo sifatli ta'lim zarur. Falsafiy nuqtai nazardan, bilim degani faqat faktlarni yodlash emas, balki ularni turli nuqtai nazar va prinsiplardan tushunishdir. Ya'ni mutaxassis barcha sohalarda bilimlarga ega bo'lishi zarur. Shu bilan birga mutaxassis - biror sohada ixtisos olgan, ixtisos egasi. Biror sohada maxsus bilim va tajribaga ega kishi, ixtisos egasidir [8; 654].

Mutaxassis o'z sohasida muammolarni hal etish, yangi tajribalar o'tkazishi va yangiliklarni qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Tadqiqotlar shuni

ko'rsatadiki, mutaxassis o'z bilimlarini amaliy tajriba bilan mustahkamlagan, samarali qarorlar qabul qila oladigan, tajriba va bilimlarni egallashga doim tayyor turadigan zamonaviy insondir. Shuningdek, mutaxassis - biror sohada maxsus bilimga ega bo'lgan shaxs. Fan yoki texnika sohalari, biror narsaning vakili [5; 1] hamdir.

Mutaxassis sifatida faoliyat yuritish, shunchaki individual bilim yoki qobiliyatlarga emas, balki jamiyat oldidagi mas'uliyatlarga ham bog'liq. Mutaxassis - muayyan ixtisoslik (ilmiy, badiiy, texnik va boshqalar) vakili, u yoki bu turdagi ixtisoslashgan ish bilan professional tarzda shug'ullanadigan shaxs [6;7] sifatida o'z ishlari orqali jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatish vazifasini o'z zimmasiga oladi.

Mutaxassis boshqa kishilar bilan ishlaganda, ularning huquqlari, manfaatlari va qadr-qimmatlari hurmat qilinishini ta'minlashi kerak. Shuningdek, mutaxassis tushunchasining falsafiy tahlili, inson uchun o'zini o'zgartirish, rivojlanish va jamiyatga bo'lgan ta'sirini oshirishga yo'naltirilgan jarayon sifatida ham ko'riladi. Ushbu jarayonda harakat va tafakkur o'rtasidagi moslik, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy faoliyat bir-birini to'ldirishi hamda rivojlanishi muhimdir. Bunday sharoitda ilm-fan, ta'lim insonlarni birlashtiradi hamda mafkuraviy, iqtisodiy, diniy, madaniy farqlanishidan qat'i nazar insoniyat uchun umumiy qadriyat vazifasini bajaradi. Hozirgi zamonga monand faoliyat yuritish uchun muayyan ilm, bilim sohibi bo'lish shart [2; 38]. Sodda tushuntirganda, mutaxassis bo'lish zarur nazarimizda.

"Mutaxassis" tushunchasi tahlilini yakunlab "yosh mutaxassis" tushunchasining tadqiqiga o'tsak. Hozirgi vaqtda "yosh mutaxassis" tushunchasi falsafiy tahlilga extiyoj sezgan muhim va ko'p tomonlama mavzudur. Bu tushunchani o'rganishda falsafiy adabiyotlarda tadqiqotlar kamligiga guvoh bo'lamiz. Mazkur tushuncha tadqiqi xususida fikr yuritganda vikipediya ma'lumotlariga yuzlanamiz. Yosh mutaxassis - oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarini tamomlagan, mehnatini alohida tartibga solinadigan mutaxassisdir. Ular o'qishni tugatganidan keyin 3 yil ichida muassasalarda olingan yo'nalishga muvofiq bevosita ishlab chiqarish maydonchasida ishlab berishga majburdirlar. Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, yosh mutaxassis ta'lim muassasasini tamomlagan, bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lgan, ammo hali

ko'nikma va malakalarini oshirishga ulgurmagan mutaxassis hisoblanadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, yosh mutaxassis - oliy o'quv yurti yoki kollej bitiruvchisi, qaysidir korxona yoki muassasada mustaqil ish boshlaydigan kadr [10], desak mubolag'a bo'lmaydi.

Odatda yosh mutaxassis - o'rta maxsus yoki oliy o'quv yurtini tamomlaganidan so'ng ishga qabul qilingan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ijtimoiy imtiyozlardan foydalanadigan xodim. Sobiq Sovet Ittifoqida yosh mutaxassis maqomi kasbiy yoki oliy ma'lumotga ega bo'lgan barcha bitiruvchilarga berilgan, bu maqom maqsadli tayyorgarlikdan o'tgan yoki maxsus qonun hujjatlariga muvofiq tayyorlangan shaxslarga berilganligiga tarix guvoh [9].

Ammo shuni aytish mumkinki, "yosh mutaxassis" tushunchasini tadqiq etishda falsafiy tadqiqotlar asosan, Rossiya va Belorussiya olimlari tomonidan olib borilganligiga guvoh bo'lamiz. Shu tufayli ularning tahlilini bir chetga surib avval huquqiy manbalardagi "yosh mutaxassis" tushunchasi tahliliga e'tibor qaratamiz.

"Yosh mutaxassis" tushunchasi turli davlatlar qonunchiliklarida mustahkamlangan. "Rossiya Federatsiyasining yoshlar siyosati to'g'risida"gi 2020- yil 30-dekabrda 489-FZ-sonli Federal qonunining 2-moddasida quyidagicha yoziladi: "Yosh mutaxassis Rossiya Federatsiyasining 35 yoshgacha bo'lgan oliy va o'rta maxsus ta'limni tamomlagan fuqarosi hisoblanadi. Ushbu Federal qonunning 6-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan hollarda, asosiy kasbiy ta'lim dasturlari va (yoki) kasbiy ta'lim dasturlari bo'yicha o'qishni tugatgan va olingan malakaga muvofiq birinchi marta ishga kirish uchun ariza berganlar" yosh mutaxassis hisoblanadi.

Fikrimizcha, o'z faoliyati bilan ijtimoiy muhit va iqtisodiy sharoitlarga katta ta'sir ko'rsata oladigan, yosh avlodning iqtidorini, talabchanligini va innovatorlik qobiliyatini namoyon qilish uchun sharoit yarata oladigan yosh kadrlarni yosh mutahassislar deb atash mumkin. Zero yuqorida ta'kidlaganimizdek, yosh mutaxassislar bilim, ko'nikma va katta tashabbuslarga ega bo'la oladilar. Tadqiqotlar va kuzatishlar natijalari ko'rsatadiki, yosh mutahassislar ishchanlik, bilim, axloq va mas'uliyat borasida katta pozitiv jihatlarga ega. Ular nima uchun mutaxassis bo'lishni

istashi, o'zlari uchun qanday maqsadlar qo'yishi va hayotga qanday falsafa bilan qarashlarini yaxshi anglashadi. Shu tufayli yosh mutaxassislarning faoliyatida ijobiy jihatlarni ko'plab uchratish mumkin.

Inson yaxshi xulq-atvori bilan jamiyatda tutgan mavqeyi, o'rni, ijtimoiy- siyosiy faolligi va jamiyatga tegayotgan nafi, umuman, sof insoniy fazilatlarini bilan inson" [3; 2] ekanligi Konfutsiyda asoslab berilgan. Biz yuqorida ko'rsatgan omillar ham yosh mutaxassisga xos xususiyatlardir desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Tadqiqotni davom ettirar ekanmiz, Rossiyaning mintaqaviy qonunchiligida yosh mutaxassisning maqomi ma'lum kasblarga bo'lgan ehtiyojga qarab imtiyozlar paketlari bilan birga belgilanishini ta'kidlaymiz. SSSRda bo'lgani kabi, maqom mehnat shartnomasi tuzilgan kundan boshlab 3 yil davomida amal qiladi va 35 (ba'zan 30) yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Ko'pincha, bu maqom o'qituvchilar va shifokorlarga beriladi va imtiyozlar paketiga bir martalik to'lovlar, boshqa joyga ko'chib o'tish bo'yicha nafaqalar, ipoteka to'lashda yordam berish yoki xizmat uy-joyi bilan ta'minlash va bola parvarishi bo'yicha nafaqalar bo'lishi mumkin.

Qonunga ko'ra, mehnat shartnomasi bo'yicha malakasiga ko'ra birinchi marta ishga qabul qilingan, 30-35 yoshgacha bo'lgan, tugallangan oliy yoki o'rta kasb-hunar ma'lumotiga ega shaxs yosh mutaxassis hisoblanadi. Tadqiqotlar natijalariga tayansak, yosh mutaxassislar o'z sohasiga ixtisolashish jarayonida ta'lim olishlari, yangi bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Ular uchun o'qish, stajirovka va amaliy tajriba olish muhimdir. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, ijodiy qobiliyat va innovatsiya, ijodiy fikrlash, yangi g'oyalar va loyihalarini amalga oshirish qobiliyati, falsafiy nuqtai nazardan, jamiyatda o'zgarishlarni amalga oshirish istagiga ega bo'lganlarni yosh mutaxassis deb atash mumkin.

Keyingi yillarda jahonda va mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish, uni tubdan qayta o'zgartirishda aniq yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ularning birinchisi, ta'limni tubdan demokratlashtirish; ikkinchisi, uzluksiz ta'lim g'oyasi, so'ng "ta'lim - bir umrga" g'oyasini "ta'lim - butun umr davomida" g'oyasiga almashtirish; uchinchisi, bu nafaqat mutaxassislarni tayyorlash vositasi, balki jamiyatga ongli, fidoyi insonlarni

yetkazib berish; to'rtinchisi, ta'limning globallashtirishga erishish; beshinchisi, ta'limni axborotlashtirishdan iborat [1;25]. Fikrimizcha, aynan shu omillar sifatli yosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bolgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularni talaba yoshlar, mehnat faoliyati bilan

shug'ullanayotgan yoshlar, oliy ma'lumotli yoshlar, ish bilan ta'minlanmagan yoshlar, qishloqda yashovchi yoshlar, shaharda yashaydigan yoshlar va uyushmagan yoshlar tashkil etadi.

Mamlakatimizda ko'plab yoshlar universitetda o'qishning so'nggi yilida ishlay boshlaydilar. Shu tufayli Rossiya qonunchiligi bo'yicha ko'pchilik yoshlar yangi qonun qabul qilinishidan oldin yosh mutaxassis maqomiga ega bo'la olmadilar, chunki ishga joylashish vaqtida ular hali o'qishni tugatmagan bo'lardi. Ammo O'zbekistonda hozir ham o'qishni tugatganidan so'ng yosh mutaxassis maqomiga ega bo'ladi. Rossiyada esa yuqorida ta'kidlangan qonun tufayli bu kelishmovchilikni bartaraf etishga qaror qilishdi. Endilikda yosh mutaxassis - bu kasbiy tayyorgarlikni tamomlagan va o'z kasbi bo'yicha birinchi marta mehnat shartnomasi tuzayotgan 35 yoshgacha bo'lgan yosh fuqarodir. Shu bilan birga, u allaqachon talabalik yillarida to'plangan ish tajribasiga ega bo'lishi mumkin.

Mohiyatan yosh mutahassis - shaxsiy rivojlanish, o'zini hozirlash, kasbiy etika va ahloqiy qadriyatlardagi o'zgarishlar hamda ixtisoslashuvlarni yaxshi anglagan yosh xodimdir. Qonunchilikda yosh mutaxassis tushunchasi ham bilvosita ko'rib chiqiladi. Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining 70-moddasi, oliy yoki o'rta maxsus ta'lim muassasalarini bir yildan kamroq vaqt oldin tugatgan shaxslar, ya'ni yosh mutaxassislarni uchun sinov muddatlarini belgilashni taqiqlaydi. Ya'ni yosh mutaxassislarni uchun belgilangan me'yorlarga amal qilishni talab etadi.

“Yosh mutaxassis” tushunchasining mohiyatiga e'tibor qaratganda, har bir sohada “yosh mutaxassis” maqomini berish uchun qo'shimcha talablar bo'lishi mumkinligi, masalan, xodim nafaqat mutaxassis, balki bakalavr darajasini olishi kerakligini aytib o'tish mumkin. Shuningdek, “yosh ishchi”ni ham ma'lum ma'noda “yosh mutaxassis”

deb atash uchun asoslar yetarli. Bular ma'lumoti va malakasidan qat'i nazar, uch yildan ortiq ish stajiga ega bo'lmagan, yosh mutaxassislarga kiritilmagan o'ttiz yoshgacha bo'lgan yigit va qizlardir desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Shu bilan birga, ta'lim muassasasini tugatganidan so'ng 30 yoshga to'lmagan, ishdan bo'shatilgan holda oliy ta'lim muassasasining to'liq o'qish kursini tamomlagan va darhol 3 oy ichida olgan mutaxassisligi bo'yicha tashkilotda ish boshlagan shaxslar yosh mutaxassislari hisoblanadi. Ularning muhim jihatlari biri tashabbuskorlik hisoblanadi.

Yoshlarga oid qonunchilik tizimi O'zbekistonda ham yaxshi rivojlangan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yoshlarga oid normalari, O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi 2016- yil 14-sentyabr O'RQ-406-son qonuni shular jumlasidandir. Qonunining 3- moddasiga muvofiq, yosh mutaxassis - oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini bitirgan, ta'lim muassasasini bitirganidan so'ng olgan ixtisosligi bo'yicha 3 yil ichida ishga kirgan va ma'lumoti to'g'risidagi hujjatda ko'rsatilgan ixtisosligi bo'yicha ishlayotganiga 3 yildan ko'p bo'lmagan 30 yoshdan oshmagan xodimdir [8; 654].

Ushbu qonunga muvofiq mamlakatimizda yosh mutaxassisning barcha jihatlari ko'rib chiqiladi va belgilanadi. Unga ko'ra bir qator mezonlar mavjud. Yuqoridagilardan kelib chiqilsa, yosh mutaxassis - bir vaqtning o'zida quyidagi mezonlarga javob beruvchi shaxsdir:

30 yoshdan oshmagan xodim;

oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining bitiruvchisi;

ta'lim muassasasini bitirganidan so'ng olgan ixtisosligi bo'yicha 3 yil ichida ishga kirgan va ma'lumoti to'g'risidagi hujjatda ko'rsatilgan ixtisosligi bo'yicha ishlayotganiga 3 yildan ko'p bo'lmagan shaxs [8; 3].

Fikrimizcha, yosh mutaxassislari oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim olib, o'qishning to'liq kursini tamomlagan va shaxsiy topshiriq komissiyasi tomonidan ishga qabul qilingan bitiruvchilar hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksiga ko'ra, yosh mutaxassislar oliy va o'rta maxsus ta'limning to'liq kursini tamomlagan shaxslardir. Yosh mutaxassis diplomi olgan paytdan boshlab ushbu maqomga ega bo'lishi mumkin. U kunduzi ta'limda o'qib, mintaqaviy va federal byudjet hisobidan ta'minlanadi.

Yuqoridagi kodeksga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yosh mutaxassis alohida maqom va imtiyozlarga ega kishi hisoblanadi. Buni faylasuf olimning quyidagi fikrlari ham isbot etadi. Yosh mutaxassis - mavqei mehnat jamoasidagi boshqa ishchilar toifasiga qaraganda (taqqoslaganda) alohida huquqlar va qo'shimcha kafolatlar bilan bir qatorda majburiyatlarda ham ajralib turadigan xodimdir [7; 3].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib kontent tahlil asosida xulosa qiladigan bo'lsak, yosh mutaxassisga nisbatan quyidagicha falsafiy ta'rif berishni taklif etamiz. Yosh mutaxassis - oliy va o'rta maxsus ta'limning to'liq kursini tamomlagan, uch yildan ortiq ish stajiga ega bo'lmagan, ishchanlik, bilim, axloq va mas'uliyat borasida katta pozitiv jihatlarga ega, 30 yoshdan oshmagan, shaxsiy rivojlanish, o'zini hozirlash, kasbiy etika va ahloqiy qadriyatlardagi o'zgarishlar hamda ixtisoslashuvlarni yaxshi anglagan yosh xodimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида: Ўзбекистан Республикасининг 2016 йил 14-сентябрь УПК,-406-сон Қ,онуни. Lex.uz

Abdullaeva M.N., Safarova N.O., G'affarova G.G'., Jalolova G.O., Niyazimbetov M.K., Usmonov F.N. Mustaqillik va g'oyalar falsafasining nazariy - metodologik asoslari. - Toshkent: Navro'z, 2014. - B.38

Konfutsiy. Hikmatlar. - Toshkent: "Yoshlar nashriyot uyi", 2019. - B.8-9.

Mamajanov I. Iqtisodiy ta'limda innovatsion va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb masalalari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy elektron jurnal. 2020. - №4. -B. 230-242.

Словарь русского языка. В 4-х т. /Под ред. А.П.Евгеньевой. 4-изд. - Москва: Русский язык, 1999.

Толковый словарь русского языка /Под ред. Д.Н.Ушакова. - Москва: Наука, 1999.

Чернышенко Н.А. Работа с молодыми специалистами // Начальная школа. - 2010. - № 9. - С. 3

Узбек тилининг изошли луфати. Беш жилдлик. Иккинчи жилд. Тузатилган 2-нашр. - Тошкент: Ўзбекистон, 2020. - 672 б.

<https://ru.ruwiki.ru/wiki/>

<https://sanstv.ru/dict>

https://www.norma.uz/bizning_sharhlar/esh_hodimlarga_berilgan_jshds_bu_yicha_imtiezni_qanday_qullash_kerak

<https://xs.uz/uz/post/prezident-yoshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-bosh-vagtini-mazmunli-tashkil-etish-bojicha-muhim-vazifalarni-belgilab-berdi>.